

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
IJTIMOIIY
FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Sh.T.Abbosova	
Ma'furaviy tahdidlarni bartaraf etishda milliy g'oyaning ro'li	98
Б.А.Абилова	
Суфийские ордена и их роль в историко-политических процессах средневековья	102
X.Q.Abdumutalov	
Yangi O'zbekistonda komil insonni shakllantrishda milliy g'oyaning o'rni.....	107
M.M.Gulamova Xoja	
Muhammad Porsoning irfoniy qarashlarida insonning ma'naviy kamoloti va ontologik mohiyati ..	110
R.Sh.Alisher	
Mirbobo Naqshbandiyni inson kamoloti qalbni sayqallash, unga ma'naviy ozuqa berish haqidagi mulohazalari	115
S.S.Hamroyev, D.Sh.Shuxratova	
Yangi O'zbekistonda oila institutini isloh qilishning ijtimoiy-huquqiy asoslarining ishlab chiqilishi	119
F.S.Qosimov	
Falsafa nigohida inson kapitalining shakllanishi va taraqqiyotdagi roli.....	124
B.M.Madaminov	
Yoshlarni axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqi milliy qahramonlik tuyg'usini mustahkamlashning nazariy-metodologik asoslari	129
F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbikorlik faoliyatining rivojlanishida halollik va axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy roli	133
M.O.Oripova	
Jamiyatda inson begonalashuvi fenomenining mohiyati va falsafiy mazmuni	137
Д.Р.Вахабова	
Возникновение философских взглядов в персидско-таджикской литературе (Абу Абдулла Рудаки)	142
A.A.Salmonov	
Inklyuziv jamiyat: tushuncha va falsafiy tahlili.....	147

SIYOSAT

A.A.Ahrorqulov, A.To'xtasinov	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib chiqish omillari	152
G.O.Sa'diyeva	
Markaziy Osiyodagi zamonaviy geosiyosiy tendensiyalar	156
R.A.To'ychiyeva	
Yangi davrda Hindiston tashqi siyosatidagi o'ziga xos ustuvor va farqli jihatlar	163
D.Mamadjonova	
Prokuratura tizimida inson huquqlarini himoya qilish: qonunchilik asoslari va amaliyot	172
X.Qodirov	
Nodavlat notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni.....	176
P.I.Ovulov	
Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi	180

TARIX

B.B.Iminov	
O'zbekiston Respublikasida nodavlat ta'lim muassasalarining vujudga kelish tarixi	185
A.U.Hamroyev	
Amir Haydar – ijtimoiy adolat tarafdori bo'lgan hukmdor.....	190
A.U.Hamroyev	
Gulshanul muluk asarida mang'itlar boshqaruvi davrida jamiyat iqtisodiy hayotining yoritilishi	194
M.M.Azimova	
Farg'ona vodiysida qishloq-vrachlik punktlari faoliyatidagi o'zgarishlar tahlili.....	198



UO'K: 297.4+929+2-672

MIRBOBO NAQSHBANDIYNING INSON KAMOLOTI QALBNI SAYQALLASH, UNGA MA'NAVİY OZUQA BERISH HAQIDAGI MULOHAZALARI

РАЗМЫШЛЕНИЯ МИРБОБО НАКШБАНДИ О ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗРЕВАНИИ, ОЧИЩЕНИИ ДУШИ И ДУХОВНОЙ ПИЩЕ

MIRBOBO NAQSHBANDI'S REFLECTIONS ON HUMAN MATURATION, PURIFICATION OF THE SOUL, AND SPIRITUAL NOURISHMENT

Alisher Rajabov Shavkatovich

Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falfafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Hindistonda naqshbandiya tariqati rivojiga hissa qo'shgan mutasavvif Mirbobo Naqshbandiyaning tariqat soliklari uchun yozgan "Mir'otus solikiyn" asarining debochasida bayon qilingan fikrlar orqali muallifning aqidasi aloqador jihatlari fors tilidan o'girilib, tadqiq qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются аспекты, связанные с убеждениями автора, переведенные с персидского языка, через мысли, высказанные в предисловии к произведению «Миратус Саликин», написанному для тариката суфийским мистиком Мирбабо Накшбанди, внесшим вклад в развитие ордена Накшбандия в Индии.

Abstract

The article examines aspects related to the author's beliefs, translated from Persian, through the thoughts expressed in the preface to the work "Mir'atus Salikin" written for the Tariqat by the Sufi mystic Mirbobo Naqshbandi, who contributed to the development of the Naqshbandi order in India.

Kalit so'zlar: Mirbobo Naqshbandiy, ahli sunna val jamoa, hanafiya, tariqat, Avrangzeb Olamgir, Abu Hanifa, naqshbandiya.

Ключевые слова: Мирбобо Накшбанди, община Ахли Сунна Валь, Ханафия, Тарикат, Авранзеб Аламгир, Абу Ханифа, Накшбандия.

Key words: Mirbobo Naqshbandi, Ahli sunna wal community, Hanafia, tariqat, Avrangzeb Alamgir, Abu Hanifa, Naqshbandiya.

KIRISH

Mirbobo Naqshbandiy taxminan 1650-1715 yillar oralig'ida yashab ijod etgan mutasavvif, naqshbandiya tariqatiga mansub so'fiylardan biridir. U dindor oilada tug'ilib o'sdi. Otasi Mir Darvish Muhammad[1] uni yoshligidan o'zi kabi darvish va tariqat soliki qilishni maqsad qildi. Mirbobo yoshligidan Qur'onni yodlab, diniy ilmlarni o'rgandi. Keyinchalik uni oilasidagi muhit tasavvuf olamiga yetakladi. Uning o'zi otasining ham o'zining ham darvishlardan ekanligini "Mir'otus solikiyn" ("Tariqat soliklarining oynasi") asarida "Darvish Mirbobo valadi Mir Darvish Sayyid"[2], deb yozib qoldirgan:




ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Mirbobo Naqshbandiy turli diniy-dunyoviy ilmlar bilan birga she'riyat va adabiyot bilan ham shug'ullandi. Uning o'zi ham o'sha davr xususiyatiga mos tarzda she'rlar yozgan orif shoirlardan edi. "Mir'otus solikiyn" ("Tariqat soliklarining oynasi") asari o'rganilganda, unda 37 o'rinda yoritilayotgan mavzuning mazmuniga mos ravishda o'zining ijod namunalari keltirgan.

Mirbobo Naqshbandiyaning tasavvufga qiziqishi uni o'sha davrda shimoliy Hindistonda keng yoyilayotgan naqshbandiya tariqati sari yetakladi. U bu tariqatni shubhasiz, o'zining ahli sunna val jamoaning hanafiya mazhabi aqidalariga mosligi uchun tanlagan. Uning aqidasi to'g'risidagi ma'lumotlarni mutasavvifning o'zi "Mir'otus solikiyn" ("Tariqat soliklarining oynasi") asarining kirish

qismida uchramiz. Mutasavvif o'sha davrning kitob yozish an'alariga muvofiq asarning muqaddimasida avval Yaratganga hamdu sano, keyin payg'ambarga na't va salovotlar, undan keyin uniing sahobalariga, xususan, Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon hamda Ali ibn Abu Toliblarga durud va maqtoqlar aytganidan so'ng, o'z aqidasi ahli sunna val jamoa ekanligi, unda to'rt mazhabdan hanafiya mazhabi ekanligini tasdiq qiluvchi, ya'ni mazhab asoschisi Abu Hanifa No'mon ibn Sobit to'g'risidagi ma'lumotlar va uni maqtoqvchi sifatlarni keltirib o'tadi:



“Musulmonlarning imomi, gunohkorlarning shafloatxohi hazrat Imomi A'zam rizvonullohi ta'olo alayhidir”[3], deb boshlab unga atab alohida nazmiy parcha keltiradi. yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlar shu parchada nazmiy bayon qilinadi. Birinchi bayt shunday boshlanadi:

Hast Nu'mon Imomi oliyqadr,
Digaron chun sitora u chun badr[4].

Mazmuni:

No'mon nomli oliyqadrli imom bor,
U to'lin oy bo'lsa, boshqalar uning oldida yulduzchalar kabidir.

Mirbobo Naqshbandiy mazhab asoschisini maqtoqli sifatlar bilan tavsiflar ekan, Hindistonda boburiylar, ayniqsa, Avrangzeb Olamgir hukmronligi davrida aynan hanafiya mazhabi rivoj topganligini bildirib o'tadi. Bu juda muhim ma'lumot sanaladi. Negaki, o'rta asrlarda davlatning siyosati din bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir mazhabning ustunligi jamiyat ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatgan.

Mutasavvif o'zining nazmiy ijodini davom ettirib, hanafiya asoschisi Abu Hanifaning tug'ilgan yilini belgilab o'tadi. Uning belgilagan yili hozirgi davr an'anaviy qabul qilingan sandan olti yilga farqlanadi:

Seyu haftod bud Bu Hanifa bizod,
Dar jahon dod ilmu donishu dod[5].


Mazmuni:

Yetmish uchinchi yil bo'lganda Abu Hanifa tavallud topdi,
Jahonda ilm, donishmandlik va adolatning dodini berdi.

Hijriy qamariy yil hisobida yetmish uchinchi yil milodiy yil bilan

693 yilga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda rasmiy qabul qilingan sana esa 699 yil hisoblanadi. Abu Hanifaning vafot etgan sanasi esa rasmiy sana bilan bir xil bayon qilingan, ya'ni 150 hijriy qamariy, milodiy 767 yil deb ko'rsatilgan. Demak, Mirbobo Naqshbandiy bu sanani o'sha davrda ma'lum va mashhur bo'lgan manbalar asosida aytganligini inobatga olsak, u islom tarixini ham juda yaxshi bilgan mutasavviflardan biri bo'lgan.

Mirbobo Naqshbandiy asar debochasini tartib bilan yozib kelar ekan mazhabboshi haqidagi ma'lumotlar va sifatlardan so'ng o'zi yashab turgan davr hukmdorining sifatlarini sanashga o'tadi. Uning adolatligini, mamlakat sarvari, podshohlar qutbi ekanligini, dinparvarligi, iymonli va taqvodorligini madh qiladi. Uning faxriy nomini “Abul Muzaffar Sulton” deb keltiradi. Podshohni “jumla musulmonlar boshiga sog' bo'lsin”, deb tilak bildirgach, mazkur asarini shu podshoh davrida yozilganini qayd qilib o'tadiki, bu o'z navbatida mutasavvifning Avrangzeb Olamgir davrida yashagan naqshbandiy pirlar bilan mustahkam aloqada bo'lganini isbotlaydi. Mutasavvif yozadi:



Yoft tartib nusxaam zi zamir,
Dar ahdi Avrangzeb Olamgir[6].

Mazmuni:

Mazkur nusxamga chin qalbdan tartib berildi,
Avrangzeb Olamgir hukmronligi davrida.

Mirbobo Naqshbandiy o'ziga aloqador gaplarni yozayotganda so'fiylik odoblari va tariqat talablaridan kelib chiqqan holda, musulmonga xos kamtarinlik bilan yondashadi. U o'zining shaxsiy hayotiga aloqador jihatlarni bu o'rinda keltirmagan, biroq o'zini tanishtirish asnosida asarning yozishdan ko'zlagan maqsadi va asarning mohiyatini aytib o'tadi: "Suxandonlik burjining gavharlari bo'lgan ma'no ahliga ma'lum bo'lsinkim, bu kam istitoat (ya'ni, amali kam) va bebizoat (ya'ni, oxirat zahirasiga ega bo'lmagan), ilmu fazldan bebahra banda Darvish Mirbobo valadi Mirdarvish Sayyid naqshbandiya oliy silsilasining ulug' xonavodalarining zohiriy va botiniy kalimalaridan, latif gaplaridan yig'ib-terib, bu nusxani tayyorladim. Zamonlar gardishi aylanib, yolg'onchi dunyodan oxirat safariga yo'l olsam, mendan bir yodgorlik qolsin va tariqat yo'lining soliklariga bu sharif nusxadan o'zlarining insoniy vujudlarining haqiqatlari va mohiyatini anglasinlar. Negakim, hadisda "Man arifa nafsahu arifa Rabbahu", ya'ni "Kim o'zini tanisa Rabbisini taniydi" deyilgan. Yana ma'lum bo'lsinki, ular "Ariftu Rabbii", ya'ni "Men Rabbimni tanidim" sharafiga loyiq bo'lib, tariqat as'hoblari va Haq yo'lining yo'lovchilariga aylansinlar"[7].

XULOSA

Yuqorida keltirilgan iqtiboslar tahlil qilinsa, Mirbobo Naqshbandiy to'g'risidagi quyidagi xulosalar yasaladi:

Birinchidan, Mirbobo Naqshbandiy islomning ahli sunna val jamoa oqimining hanafiya mazhabiga e'tiqod qilgan.

Ikkinchidan, u nafaqat shar'iy ilmlardan, balki o'zigacha bo'lgan tasavvufiy ilmlardan ham yaxshi xabardor bo'lgan.

Uchinchidan, mutasavvif arab va fors tillarini yaxshi bilgan, ziyoli so'fiylar sirasiga kiradi.

To'rtinchidan, Mirbobo Naqshbandiy tasavvuf adabiyotidan yaxshi xabardor, o'zi ham nazmiy iste'dodga ega shoir so'fiy.

Umumiy xulosa qilinsa, Mirbobo Naqshbandiyning "Mir'otus solikiyn" asarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish nafaqat tasavvuf ixlosmandlariga balki she'riyat va tarixni sevuvchilarga katta manfaatlar yetkazgan bo'lar edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rajabov Alisher Shavkatovich. About Bahouddin Naqshband in Mirbobo Naqshbandi's Poetry. / International journal of formal education. 2022. – P. 1-5.
<http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/455>
2. Sh, Murtazoyev. "Oh the Manuscript of "Avariful-maarif"(Those People Recognizing Enlightenment) of Shakhbuddin Umar Sukhravardi." International Journal on Integrated Education 2.5: 166-169.
3. Kenjayev, Sardor Nurmurod Son. "Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State)(In the Case of Fu An)." Miasto Przyszłości 29 (2022): 112-114.
4. Norboyev, Sardor Qavmiddinovich. "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SIYOSIY PARTIYALARNING SIYOSIY VA IJTIMOYIY AHAMIYATI." Scientific progress 4.5 (2023): 4-8.
5. ERKINOVICH, TUYEV FAZLIDDIN. "FACTORS OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT IN BUKHARA REGION IN 1991-1995 AND THE ISSUE OF PARTICIPATION IN FOREIGN RELATIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.05 (2022): 256-258.

6. Shokirov, Mubin. "Tarixiy jarayonni bilish methodlai asosidaanaliz qilish." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz) 5.5 (2021).
7. Urazov, Bobir. "A O'razov Bobir Baxtiyorovich: РУМИЙ–СЎФИЙЛИК ТАРИҚАТИ ПЕШВОСИ." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti journal 2.2 (2022).
8. Sharipov, Abduxakimjon. "A SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF GENDER POTENTIAL: SOCIAL AND PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF GENDER POTENTIAL." Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti journal 2.2 (2022).
9. Rajabov, Alisher, and Shoxijahon Urinov. "XVII ASRNING 1-HALF BUXORO XONLIGINING SIYOSIY INQIROZI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI." Development of pedagogical technologies in modern sciences 2.5 (2023): 51-54.
10. Togayeva, Dilnoza. "WORD OF VARIABILITY IN UZBEK LANGUAGE." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 1.9 (2021): 454-458.
11. Kilichev, Rajab Ergashovich. "BUKHARA IS THE ANCIENT CITY OF THE EAST." Theoretical & Applied Science 7 (2020): 26-28.
12. Boboqulov, Oxunjon. "SHAROF RASHIDOVNING AFRO-OSIYO XALQLARI BIRDAMLIGI CONFERENCES ISHTIROKI XUSUSI." Innovation and development: theory and practice 2.17 (2023): 187-189.
13. Рахматова, Холidahon. "ХОЖА АХРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА ХАМЖИХАТЛИККА ДОИР Г 'OLIVES–BARQAROR TARAQQIYOT OMILI ADJECTIVE." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-governmental issues/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.S/5 (2023).
14. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH ISSN: 2690-9626 Vol. 4, No. 7, 2023. Immanuel Kant's Maxims of Peace Sharipov Dilshod Bakhshilloevich Lecturer of Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan. P.90-93.
15. Sharipov, Dilshod. "TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIY) TARTIB BO'YICHA ASSAY." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-governmental issues/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.3 (2023): 144-148.
16. Джураев Ш. Г. ИЗ ИСТОРИИ БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА. СОЗДАНИЕ МУЗЕЕВ И ВЫСТАВОК. // КУЛЬТУРА И ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ НАРОДОВ В МУЗЕЙНЫХ, НАУЧНЫХ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ - ВАЖНЕЙШИЕ ФАКТОРЫ СТАБИЛЬНОГО РАЗВИТИЯ СТРАН ЕВРАЗИИ. Омск, 21–24 сентября 2021 года – 2021. -с. 67-73.
17. Rajabov Alisher Shavkatovich, Latipov Behruz Barot o'g'li. (2023). SOMONIYLAR DAVLATINING TARIX SAHNASIGA CHIQISHI VA UNDA ISMOIL SOMONIYNING TUTGAN O'RNI. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM,2(10), 48–51. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8412605>